

O‘zbekiston Respublikasi  
 Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi  
 Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va  
 jamoat salomatligi qo‘mitasining 2023 yil  
 “14” 06 №26-sonli buyrug‘iga  
 1-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 16- iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarning faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-sonli Farmoni bilan belgilangan topshiriqdan kelib chiqib, amalga oshiriladigan ishlar bo‘yicha

### **CHORA-TADBIRLAR DASTURI**

<b>№</b>	<b>Tegishli bandlarda belgilangan topshiriqlar</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Ma’lumot joylashtiriladigan resurs</b>	<b>Mas’ul ijrochilar</b>	<b>Mas’ul o‘rbosar boshqarma, bo‘lim boshliqlari</b>
1.	<b>1-ilova 1-band.</b> Qo‘mita faoliyatiga oid hisobot (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar bundan mustasno).	har yili 1 martga qadar	Rasmiy veb-sayt	N.Tashbayev	boshliq o‘rbosarlari, Boshqarma va bo‘lim boshliqlari
2.	<b>1-ilova 3-band.</b> Davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shu jumladan davlat xaridlarini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha harid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar).	har chorakda	Ochiq ma’lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	J.Eshonqulov	Q.Hayitov
3.	<b>1-ilova 4-band.</b> Mansabдор shaxslarning xizmat safarları va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish harajatlari (xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog‘liq harajatlari (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar bundan mustasno).	har chorakda	Ochiq ma’lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	SH.Kamalova	Q.Hayitov
4.	<b>1-ilova 5-band.</b> Davlat budgeti, davlat maqsadli jamg‘armalari hamda qo‘mitaning budgetdan tashqari jamg‘armalari hisobiga harid qilinishi rejalashtirilgan	Doimiy ravishda	Rasmiy veb-sayt	J.Eshonqulov	Q.Hayitov

	tovarlar (ishlar, xizmatlar) to‘g‘risidagi ma’lumotlar <b>(xarid e’lon qilinishidan kamida 6 oy oldin).</b>				
5.	<b>1-ilova 6-band.</b> Davlat xaridlari va investitsiya loyihalari doirasida hamda ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish bo‘yicha tashkil etiladigan xarid komissiyalarining tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shu jumladan: xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqidagi qaror; xarid komissiyasi a’zolarining ma’lumotlari ( <b>familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi</b> ).	har yili	Rasmiy veb-sayt	S.Aktamov	X.Norboev, Q.Hayitov
6.	1-ilova 8-band. Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar hamda davlat unitar korxonalari (keyingi o‘rinlarda — davlat ishtirokidagi korxonalar) ro‘yxati (davlat nomidan aksiyador (ishtirokchi, mulkdor) funksiyalarini amalga oshirayotgan tashkilot, korxona hududi, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami, davlat ulushi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘rsatgan holda), shuningdek, ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortig‘i davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar ro‘yxati.	har chorakda	Ochiq ma’lumotlar portali	J.Eshonqulov	Q.Hayitov
7.	<b>1-ilova 14-band.</b> Qo‘mita tomonidan tasdiqlangan yillik harajatlar smetasi bilan bir qatorda, uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish va saqlash harajatlari to‘g‘risidagi va boshqa ma’lumotlar.	har chorakda	Ochiq ma’lumotlar portali, Rasmiy veb-sayt	S.Xurramov, A.Norbekov	Q.Hayitov
8.	<b>1-ilova 15-band.</b> Qo‘mita tasarrufidagi xizmat avtomototransport vositalari, xizmat uylari va boshqa ko‘chmas mulklar, qurilishi tugallanmagan obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar.	har chorakda	Ochiq ma’lumotlar portali, Rasmiy veb-sayt	A.Norbekov, J.Eshonqulov	Q.Hayitov

9.	1-ilova 16-band. Qo'mitaning litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berishga vakolatli hamda xabarnomalarini qabul qiladigan hududlar kesimidagi mas'ul xodimlari, shu jumladan ushbu toifadagi hujjatlarni berishni tashkillashtiradigan tegishli komissiya a'zolari (familiyasi, ismi va otasining ismi, egallab turgan lavozimi) to'g'risidagi ma'lumotlar.	har chorakda	Rasmiy veb-sayt	O.Yo'ldoshev	N.Atabekov, Q.Hayitov
10.	<b>1-ilova 29-band.</b> Qo'mita huzuridagi jamoatchilik kengashi to'g'risidagi buyruq, shu jumladan: jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a'zolari haqidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda ularning aloqa ma'lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari); jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar.	har chorakda	Rasmiy veb-sayt	N.Tashbayev	X.Norboyev, Q.Hayitov
11.	<b>1-ilova 30-band.</b> Qo'mitaning tasdiqlangan yarim yillik va (yoki) yillik ish rejalari (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno).	har yili	Rasmiy veb-sayt	N.Tashbayev	X.Norboyev, Q.Hayitov
12.	<b>1-ilova 31-band.</b> Qo'mitagaga doimiy foydalanish uchun berilgan yer maydonlari va boshqa mol-mulklarni davlat-xususiy sheriklik asosida olgan yuridik va jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar.	har chorakda	Rasmiy veb-sayt	A.Norbekov	X.Norboyev, Q.Hayitov
13.	<b>1-ilova 32-band.</b> Qo'mita tomonidan jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar.	har chorakda	Rasmiy veb-sayt	J.Eshonqulov, D.Kuziyeva	Rais o'rinnbosarlari, Q.Hayitov
14.	<b>1-ilova 34-band.</b> Qo'mitaning tarkibiga kiruvchi davlat muassasalarining nomi, faoliyat turi, funksiya va vakolatlari hamda rahbarlari to'g'risidagi ma'lumotlar.	har chorakda	Rasmiy veb-sayt	S.Aktamov	Rais o'rinnbosarlari, Q.Hayitov

*Izoh: Har choraklikda beriladigan ma'lumotlar keyingi oyning 5 sanasiga qadar Axborot xizmati bo'limiga taqdim etilishi shart! Mas'ul ijrochilar ishdan lavozimidan ozod etilganda yoki boshqa ishga o'tkazilganda, uning o'rniغا tayinlangan*

\*Komissiya tarkibidagi xodim ishdan bo'shaganda komissiya tarkibidan chiqariladi o'rniغا boshqa xodim qo'yiladi.

\*\*Choraklik va yillik ma'lumotlarni Axborot xizmati bosh mutaxassis D.Mirboboyeva to'playdi, Moddiy-texnika bazani rivojlantirish, AKTni joriy etish va raqamlashtirish bo'limi bosh mutaxassis J.Omonov tomoindan rasmiy veb-sayt va ochiq ma'lumotlar portaliga joylashtiriladi.